



ТАСВИРИЙ САЪНАТ

TALABALARNI OCHIQ XAVODA MANZARA ISHLASH QOBILYATNI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Rizayev X.I.

*Namangan davlat universiteti "Tasviriy va amaliy san'at"
kafedrasida dotsenti*

Tayanch soz'lar: tasviriy san'at, manzara janri, akvarel, kompozitsiya, perspektiva, plener, nisbat, rang, etyud.

Ключевые слова: изобразительное искусство, пейзаж, акварель, композиция, перспектива, пленер, пропорция, цвет, этюд.

Key words: fine art, landscape, watercolor, composition, perspective, plein-air, proportion, color, etude.

So'nggi yillarda Respublikamizning barcha sohalarida tub o'zgarishar, chuqur islohatlar olib borilayotgani ma'lum. Ayniqsa, ta'lim tizimida ham yangi zamon talablariga mos, jahon tajribalari bilan raqobatbardosh ilmiy-ijodiy salohiyatni chuqurlashtirish kabi dolzarb masalalar pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklamogda. Bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilinyotgan Qaror va Farmonlar hududlarda bu jarayonni barqaror rivojlantirish borasida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'limdanning tasviriy san'at va muxandislik grafikasi yo'nalishida maxsus o'quv amaliyoti (plener, ochiq xavoda rasm chizish) o'tkazilishi xam o'quv rejada berilgan bo'lib, uning maqsadi ochiq xavoda ishlash, joylarni daraxt va o'simliklarni tasvirlash, xavo perspektivasidan foydalanish, tabiat bilan binolarning monand xolatini tasvirlash, kompozitsion yechimlar topish, shuningdek talabalarni tasviriy san'at asoslari yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, tevarak – atrofdagi go'zalliklarni ko'ra bilish va idrok etish hamda bu go'zalliklarni tasviriy san'at vositasida tez va ifodali tasvirlashga o'rgatishdan iboratdir.

Plener amaliyoti mashqlari ochiq xavoda, tabiat qo'ynida o'tkazilishi bois. Talabalarni nafaqat ijodiy faoliyatlarini o'stirish balki tabiatdan zavqlanish, uni xis qilish bilan xusni tarovati bilan ruxiyatni ko'tarish, mustahkamlash, kayfiyatni



yaxshilashga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Amaliyot jarayonida talabalar tabiatdan ma’naviy ozuqa xam oladilar. Ochiq xavoda etyud ishlash davrida ular tabiatning o‘ziga xos o‘zgarishlarini kuzatib o‘z ko‘zi bilan ko‘rib tasvirga tushiradilar. Bunda talabalarning bilimi, idroki, sezgirligi, ranglarni xis qila bilish qobiliyatlari namoyon bo‘ladi. Plenerda rasm chizish tasviriy san’at mutaxassisligi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Talabalar tabiat go‘zalligini, turli xil xususiyatlarini anglash bilish va kelajak avlodga yetkazib, ularni o‘zi yashab turgan joyga, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatini namoyon etish hamda o‘zi idrok etayotgan go‘zalliklarni turli yo‘llar bilan tez va ifodali tasvirlashga o‘rganishlari lozimdir.

Ochiq xavoda rasm chizish amaliyoti qalamtasvir, rangtasvir, gafika, dastgoxli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya fanlaridan olgan bilimlarini mustaxkamlash, amaliy sinovdan o‘tish ma’nosida auditoriya darslarining plener amaliyotidagi davomidir va o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida olgan nazariy bilimlarini kengaytirish va amaliy malakalarini chuqurlashtirish imkonini beradi. Talabalarni borliqdan yorug‘lik va rang, turli shakllarni borliqdan tasvirlashni o‘rganib boradilar. Ochiq xavo sharoitida tabiiy yorug‘lik muhiti, rang-baranglik sifatlarini namoyon etuvchi tabiatning mo‘jizakor tuzilishi va rang o‘zgarishlarini kuzatadilar, badiiy, tasviriy tahlil qilish malakasini egallab boradilar: bunda yangi pedarogik innovatsion ta’lim texnologiyalari turlaridan o‘rinli qo‘llab kelinmoqda, ayniqsa fotoapparat, videokameraning ART programmasidan ochiq havoda tasvirlamoqchi bo‘lgan obektni oldindan joylashtirish, yorug‘-soya, rang uyg‘unligini fotoapparat, video kameraning ART programmasidan foydalanish imkoni mavjud bo‘lib, rassom o‘z qo‘lida bo‘yoqlar yordamida tasvirlagandek shaklda video kamera monitorida ko‘rish mumkin.

Talabalar borliqdan qisqa muddatli tasvirlar qoramalar ya’ni etyudlar ishlar ekanlar ular turli pedagogik texnologiyaning yangi innovatsion texnologiya usul va vositalarni qo‘llaydilar va bu amaliy ko‘nikma orqali tabiat o‘zgarishlarini, go‘zalligini xayolan tasavvur etib yurib, ijodiy asarga yaqinlashib boradilar va rangtasvir, dastgoxli rangtasvir va kompozitsiya asoslari kabi fanlaridan olgan bilimlarini amalda mustaqil bajarishga erishadilar.

Bu jarayon talabalarni albatta tabiatni harakatdagi ko‘rinishi o‘zgarishlardagi farqliliklarini sezib borishlari bilan ularning malakaviy faoliyatlari shakllanadi, qalamtasvir, rangtasvir, dastgoxli akademik rangtasvir va kompozitsiya asoslari vanlarining uzviy bog‘liqligini, bu esa ijodkorning asosiy mezonlaridan biri ekanligini anglab yetadilar.

Plener amaliyoti jarayonida talabalar oddiydan murakkab sari izchil tarzda o‘tib boradilar. Ular avvalo oddiy tasvirlar yaratadilar. Masalan, oddiy shakllardan o‘simliklar, daraxtlar, har-xil xajmdagi qoya toshlar, uylar, tarixiy binolar, qushlar va xayvonlar, traktor, ekskavator, xar xil rusmdagi moshinalar va odamlar qiyofasini tasvirlashga o‘tadilar va u orqali hayotning ijtimoiy-falsafiy tomonlarini tasvirlash



bilan talabalarda tabiatga bo‘lgan mehr, insonlarga bo‘lgan muxabbat tuyg‘usi tarbiyalanadi.

Tabiat go‘zalliklarini ijodiy xis qilish, tushunchalarini shakllantirish va uni tasviriy vositalar orqali ifodalash, talabalarda mavzuli mavzuli kompozitsiyalar yaratishga olib keladi. Bu o‘rinda talabalar naturadan ishlagan qoralama va ranglavxa etyudlarini to‘playdilar va ularni kelgusi ijodiy ishlarida foydalanishda zarur bo‘lishini anglab yetadilar.

Plener amaliyoti jarayonida talabalarni ijodkorlikka yo‘naltirish ko‘p tomonlama amaliyot raxbariga ham bog‘liqdir. Eng avvalo, amaliyot raxbari ijod qiluvchi, nazariy va amaliy malakaga ega bo‘lgan, talabalar bilan birgalikda ijod qila oladigan, tajribali pedagog rassom bo‘lmog‘i zarur. Aks xolda, katta umid bilan amaliyotga chiqqan talabalarni ijodkorligini susaytirib qo‘yish yoki ijodkor talabani individual ruxiyatini yaxshi seza olmay uni ijodkorlik ruxini tushirib yuborishi mumkin. Shu bois amaliyot raxbarida mas‘uliyat turadiki, u talabalarning barchasini amaliy ishlashga yo‘naltirish, har birining aloxida uslubini topishga yordam berish, talabani qiyinchiliksiz oddiy tasvirlardan ijodiy asar yaratish bosqichi tomon o‘rgatib borish zarur. Ba‘zi bir talabalar erkin, qoralama va etyud ishlashga tez kirishib ketadilar, ba‘zi bir talabalar esa o‘zlarini ma‘lum darajada tajribasizligi, bilim va ko‘nikmalarini yetarli emasligidan tortinib, tabiat manzaralarini chizishga darhol kirishib keta olmaydilar. Bu holatlarda amaliyot rahbari ularni ruxlantirgan holda mativatsiya berib, zaruriy maslahati bilan etyud ishlashga ravon kirishib ketishiga yo‘naltirishi zarur. Bu borada amaliyot rahbari bo‘lgan pedagogning o‘zi talabalar ko‘zi o‘ngida, o‘zi ham ular bilan birgalikda ijod qilib borishi juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Ушинский К. Д. Избранные педагогические произведения. М., 1968, с.338.
2. Мастера советского искусства о пейзаже. М., 1963, с.96.
3. Альберти Леон Баттиста. Десять книг об архитектуре. М., 1937, т.ИИ, с. 58.
4. Х, Эгамов. Рангтасвир. Т., 2005, б. 14.
5. Н.Я. Маслов. Пленэр. М., 1984, с.42.
6. Botir Boltabayevich Baymetov. Oliy pedagogik ta‘limda bo‘ljak tasviriy san‘at o‘qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ba‘zi masalalari. academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021.

РЕЗИОМЕ

Maqola tasviriy san‘atning rangtasvir darslarida, ochiq xavo (plener) amaliyotida yoshlarga tabiat manzarasini tasvirlashga o‘rgatish metodikasiga bag‘shlangan. Unda tasviriy san‘at qonuniyatlari va etyud ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

РЕЗИОМЕ

Статья посвящается методике обучения молодых изобразить ландшафт природы на уроках живописи изобразительного искусства, в практиках под открытым небом (пленэр). Внем даны методические советы по работе с этюдом и о закономерностях изобразительного искусства.

SUMMARY

The article is devoted to method of teaching young people to portray the landscape of nature at the lessons of fine arts and outdoor practices. The article provides methodical advices on work with etude and the legality of fine arts.